

## MUSIQA O'QITISH METODIKASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Mamatxonova Gulnoza Bahtiyor qizi**

*Namangan davlat pedagogika institute Musiqa yo'nalishi 2- bosqich talabasi E-mail:mamatxonovagulnoza6@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, musiqa o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari, musiqa metodikasini o'qitishda nimalar e'tibor berish kerakligi hamda xususiy (optimal) metodlar o'qitish faoliyati, ko'rgazmali o'qitish metodlari, o'yin metodi, yana bir qator metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *musiqa metodikasi, musiqa o'rganish, musiqiy fikrlash, musiqa tinglash, metodika, musiqa tahlili, ta'lim tizimi, maqsad, vazifa.*

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены цели и задачи методики обучения музыке, на что следует обратить внимание при обучении методике обучения музыке, а также специальные (оптимальные) методы педагогической деятельности, демонстративные методы обучения, игровой метод и т.д. предусмотрено количество методов.

**Ключевые слова:** музыкальная методика, обучение музыке, музыкальное мышление, слушание музыки, методика, анализ музыки, образовательная система, цель, задача.

**Abstract:** *In this article, the goals and tasks of the music teaching methodology, what should be paid attention to in teaching the music methodology, and special (optimal) methods of teaching activities, demonstrative teaching methods, game method, etc. information on a number of methods is provided.*

**Key words:** *music methodology, music learning, musical thinking, music listening, methodology, music analysis, educational system, goal, task.*

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini belgilab beradi. Xalqimiz kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning dunyoqarashi, salohiyati, fidoyiligi, kasbiy tayyorgarligi, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bunday murakkab ijtimoiy vazifani amalga oshirishda barcha ilm-fan va amaliy faoliyatlar ichida "Musiqa o'qitish metodikasi" fani yetakchi o'rinn egallaydi.

Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsiyal xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Inson hayotini

musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvida ham muhim o'rinni o'ynaydi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatligini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir. Musiqa go'zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug'ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta'sirida paydo bo'lgan. Tashqi olamni o'zgartirish bilan insonning o'zi ham o'zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma'naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib bordi. Musiqa san'ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog'liqdir. Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo'lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko'rsatishdir. Shu ma'noda uning o'rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o'rinni oladi. Shunday qilib, voqelikka bo'lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

Musiqa o'qitish metodikasi, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlami nazariy qismlarini umulashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U, musiqa o'qitishning qonun - qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlami belgilaydi. Metodika, ta'lim - tarbiva jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqa o'qitish metodikasi o'qituvchidan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashaqqatlari va juda mas'uliyatlari sohadir, xozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunday qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda maxaliy olimlar, metodistlar, tajribali o'qituvchilarining qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ladi. Badiiy pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari talabalami pedagogika faolivatiga tayyorlash, ulami metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilish talab etiladi. Ma'lumki, mакtabda o'quvchilaming yosh fiziologik xususiyalarini,

ko'nikma va malakalariga qarab, musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (O'quv reja, dastur) ta'lim printsiplari, o'quv - tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir. Demak musiqa o'qitish metodikasi, o'quvchilarning musiqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yullarini tadbik etuvchi fandir, "Metodika" so'zi grekcha so'z bo'lib, "tadqiqot yo'li", "bilish usuli" degan ma'noni anglatadi va ta'lim - tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ulaming yig'indisi musiqa o'quv metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, maxorat va malakalarini egallahda, ulaming ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'shgan ish usullari tushuniladi. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini xususiy {optimal} metodlar egallab, musiqa darsida qollash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqa darsida o'qitishning (optimal) xususiy metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan professional talablar va o'quvchilar munosabatini, xususiy metoddardan foydalanish jarayonida xal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Xususiy metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustaxkamlashda, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarni bilish jarayonida izlanishda undovchi metoddir.

Xususiy (optimal) metodlar o'qitish faoliyati maqsadga qarab to'rtga bo'linadi:

Darsni musiqaviy umumlashtiruvi metodi.

O'tilajak darslarga oldindan «yugurib», bog'lanib o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.

Dars mazmunini emotsiyal dramaturgiyasi metodi.

Darsning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baxolanish metodi.

Darsning musiqaviy umumlashtirish metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, o'quvchilarni musiqa idroki, mantiliy badiiy fikrlash qobiyyatini rivojlantirishga qaratilgandir:

A) o'qituvchi darsda xal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalami vujudga keltiradi;

B) o'qituvchi va o'quvchi birga hamkorlikda masalani yechadi.

S) o'quvchilar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

Oldinga “yugurib o’tish”, ya’ni ilgari o’tilgan materialdan foydalanib, o’quvchilami yangi material o’zlashtirishga tayyorligini sinab ko’rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

Emotsional dramaturgiya metodi bilan darsning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo’lib, boshlanishi va yakunlanishiga boradi. O’qituvchi darsni ijrochilik mahorati, so’z ustaligi bilan qiziqarli qilib o’tishi kerak va o’quvchilarni darsga faol qiziqtirib, darsning emotsiyal dramatumiyasi, ya’ni avjiga erishishi lozim. Musiqa o’qituvchisi məktabda musiqa darsidan tashqari kontsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o’tkazishni talab etadi.

Darsni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo’linadi:

- A) O’quvchilami bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.
- B) Bilim faoliyatini rag’batlantirish va tanbehlash talablarini qo’yish.
- C) O’qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish.

Baholashda shunday extiyotkor bo’lish kerakki, o’quvchilarni kayfiyati tushib ketmasin. Darsga, qo’shiq kuylashga qiziqishi sunmasin. Rag’batlantirishda esa aksincha. O’qituvchi va o’quvchi munosabatlari me’yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag’batlantirish, sinfda boshqa o’quvchilarga namuna bo’lib xizmat qilsin va ular odobli, aqlii bo’lishga intilsinlar.

Shunday qilib, musiqa o’qitish metodlarini boshqa turlari ham mavjud;  
Musiqa o’qitishning og’zaki metodlari;  
Ko’rgazma o’qitish metodlari;  
Amaliy o’qitish metodlari;  
O’yin metodlari;  
Taqqoslash metodlari;  
Musiqiy o’quvi bo’sh bo’lgan bolalar bilan ishslash metodi.

Musiqa o’qitishning og’zaki metodlari. Musiqa darsida o’qituvchining so’z maxoratiga alohida talab qo’yiladi. O’qituvchi o’zining asar haqidagi badiiy kirish so’zi bilan o’quvchilami ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli xikoya yoki suhbat yo’li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi. Asosan, bu metoddan boshlang’ich sinfda ko’proq foydalaniladi. Hikoya - bu o’qituvchining musiqa asari haqida jonli, emotsiyal yorqin bayoni. Hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo’lib, uning maqsadi o’quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o’rgatish. Suxbat - o’qituvchi va o’quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bolib, o’quvchilarni

mustaqil fikrlashga undaydi. Ulami nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatni kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi. Tushuntirish - ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darsida qollaniladi. Bu asosan, musiqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.



Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va ohang tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organlari orqali tinglab, idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlami, plakatlar, rasmlar, O'qituvchining so'zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy o'qitish metodlari. Amaliy metodlar vositasida o'quvchilar vokal - xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o'rganish malaka va ko'nikmalarini shakllantirlishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal - xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

O'yin metodi - boshlang'ich sinflarda ko'proq ijobiy natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etilgan. Boshlangich sinf o'quvchilari serharakat va o'yingga moyil bo'ladilar. Darsda qollaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa darsiga qiziqish o'ygotadi.

Taqqoslash metodi. Musiqa darsi jarayonida kontrast, ya'ni taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal - xor ishlarida o'qituvchi, o'quvchilar bilan gramyozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqa asarining tahlili vajanrlarni belgilashda keng qollaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarni templari, turli cholg'u asboblardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishslash metodi. Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differential guruhlarga bo'lib va darsdan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi.

Differentsial guruh-deganda o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, o'quvi va ovoziga qarab uch guruhga bo'linadi.

1 - guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lган o'quvchilar kiradi.

2 - guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lган, ya'ni o'qituvchining ovoziga ergashib, cholg'u so'ziga tayanib va do'stlarini ovoziga ergashib kuylaydigan o'quvchilar kiradi.

3 - guruhga esa, ovozi uncha yaxshi bo'lмаган, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lган o'quvchilar kiradi.

Musiqa darsi jarayonida bu o'quvchilar quyidagi tartibda o'tkaziladi: birinchi qatorga o'qituvchini ovoziga tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lмаган o'quvchilar, uchinchi qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lган bolalar o'tkaziladi. Bunda ikkinchi qatordagi o'quvchilar musiqa ohanglarini atrofdagilar eshitib ularning ovozalariga ergashib, chiroyli, kuylashga harakat qiladilar. Shu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lган bolalar bilan, darsdan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. SHu tariqa, hamma o'quvchilami musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quv, bir xilda bo'lib, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rин tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rин tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi.

Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish.

Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilami musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilami musiqiy qobiliyatları musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;
- musiqiy asarlari badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida takidlash joizki donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onasini hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblaridan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak. "Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ularni qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi".

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi", -T . "O'zbekiston" nashriyoti, 1998y.
2. L.Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", - T.: «Fan» nashriyoti, 1993y.
3. H.Nurmatov, O.Ibrohimov «Musiqa» o'quv qo'llanma. - T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1997 y.

4. O'.Hasanboyeva, J.Hasanboyev va boshqalar "Pedagogika tarixi".  
T.:  
"O'qituvchi" nashriyot, 2004 y.